e-ISSN 3060-5059
DOI: 10.67227


IJTIMOIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 10

2026



Founded in 2024

publishscience.uz | publish_science_journal@mail.ru

PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

ISSN 3060-5059 (Online)
Article / Original paper https://doi.org/10.67227/k9ezxx91

YEVROPA, AMERIKA VA ROSSIYA MANBALARIDA O‘ZBEK XONLIKLARI QISHLOQ XO‘JALIGI TASNIFI

Kamolova Nargiza Po‘latbayevna
Osiyo xalqaro universiteti, dotsent, PhD.
e-mail: nargizakamolova89@mail.ru **ORCID**: https://orcid.org/0000-0001-9913-0101

Annotatsiya.
Mazkur ilmiy maqolada rus, Yevropa va Amerika mualliflarining tarixiy asarlari, sayohatnomalari hamda ilmiy tadqiqotlarida o‘zbek xonliklari qishloq xo‘jaligiga oid masalalarning yoritilishi va tasnifi ilmiy-tarixiy jihatdan tahlil qilingan. Xususan, Buxoro amirligi, Xiva va Qo‘qon xonliklarida dehqonchilik, chorvachilik, yer egaligi munosabatlari, sug‘orish tizimlari, agrar ishlab chiqarish hamda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari savdosiga oid ma’lumotlarning mazmuni va xususiyatlari o‘rganilgan. Shuningdek, xorijiy mualliflarning mazkur masalalarga yondashuvlari qiyosiy tahlil qilinib, ularning tarixiy manba sifatidagi ilmiy ahamiyati yoritilgan.

Kalit so‘zlar: A. Vamberi, Yu. Bregel, Fred Burnaby, Richard Frye, P. Nebolsin.

КЛАССИФИКАЦИЯ СВЕДЕНИЙ О СЕЛЬСКОМ ХОЗЯЙСТВЕ УЗБЕКСКИХ ХАНСТВ В ЕВРОПЕЙСКИХ, АМЕРИКАНСКИХ И РОССИЙСКИХ ИСТОЧНИКАХ

Камолова Наргиза Пулатбаевна
Азиатский международный университет, доцент, PhD.

Аннотация.
В данной научной статье представлен историко-научный анализ освещения и классификации вопросов сельского хозяйства узбекских ханств в исторических трудах, путевых заметках и научных исследованиях русских, европейских и американских авторов. Особое внимание уделяется изучению сведений о земледелии, животноводстве, земельных отношениях, ирригационных системах, аграрном производстве и торговле сельскохозяйственной продукцией в Бухарском эмирате, Хивинском и Кокандском ханствах. Кроме того, проводится сравнительный анализ подходов зарубежных авторов к освещению указанных вопросов и раскрывается научная значимость их трудов как исторических источников.

Ключевые слова: А. Вамбери, Ю. Брегель, Фред Бернаби, Ричард Фрай, П. Небольсин.

THE CLASSIFICATION OF INFORMATION ON THE AGRICULTURE OF THE UZBEK KHANATES IN EUROPEAN, AMERICAN, AND RUSSIAN SOURCES

Kamolova Nargiza Po‘latbayevna
Asia International University, Associate Professor, PhD.

Abstract.
This scientific article provides a historical and scholarly analysis of the coverage and classification of agricultural issues related to the Uzbek khanates in historical works, travel accounts, and academic studies by Russian, European, and American authors. Particular attention is paid to examining information concerning farming, animal husbandry, landownership relations, irrigation systems, agricultural production, and the trade in agricultural products in the Emirate of Bukhara and the Khanates of Khiva and Kokand. Furthermore, the article presents a comparative analysis of foreign authors’ approaches to these issues and highlights the scholarly significance of their works as historical sources.

Keywords: Arminius Vámbéry, Yuri Bregel, Fred Burnaby, Richard Frye, P. Nebolsin.

Kirish. Hozirgi kunda jahon aholisi sonining jadal sur’atlar bilan ortishi insoniyat oldiga ekologik izlanishlar, oziq-ovqat xavfsizligi va ochlik kabi qator global muammolarni kun tartibiga chiqardi. Bu holat dunyo mamlakatlarida qishloq xo‘jaligi mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojning sezilarli darajada oshishiga sabab bo‘lmoqda. Shu bilan birga, mavjud tabiiy resurslardan, ayniqsa, yer fondidan samarali va oqilona foydalanish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur vaziyat, o‘z navbatida, ilk dehqonchilik madaniyati shakllangan hududlarni har tomonlama o‘rganish va ularning tajribasini zamonaviy amaliyotga tatbiq etish zaruratini keltirib chiqardi. Shuningdek, zamonaviy qishloq xo‘jaligi texnologiyalari, aqlli issiqxonalar, IoT (Internet of Things) tizimlari va yerni samarali ishlatish yo‘nalishida, mahsuldor chorvachilik va sifatli sut mahsulotlari ishlab chiqarish hamda yer va tabiiy muhitga salbiy ta’siri kam bo‘lgan pestitsid va o‘g‘it ishlab chiqarish masalalari bugungi zamonaviy qishloq xo‘jaligi oldida turgan asosiy masalalar sanaladi.

ISSN 3060-5059 (Online)

TADQIQOT USULLARI

Mazkur maqolada O‘rta Osiyo xonliklar davri an’anaviy dehqonchiligi va qishloq xo‘jaligi tizimi bo‘yicha birlamchi manbalar tizimli, qiyosiy hamda ilmiy-tahliliy usullar asosida o‘rganildi. Tadqiqot jarayonida Yevropa, Amerika va Rossiya mualliflarining asarlari tahlil qilindi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

XVIII asrning o‘rtalariga kelib, rus va yevropaliklarning Markaziy Osiyo mamlakatlariga bo‘lgan qiziqishi sezilarli darajada ortdi. Bu davrda rus va yevropalik tadqiqotchilar, sayohatchilar hamda missionerlar mintaqani har tomonlama o‘rganish maqsadida tarixiy kartografiya, geografiya va qishloq xo‘jaligi sohalarida izlanishlar olib bora boshladilar. Dastlab ma’muriy va ilmiy hisobotlar shaklida tayyorlangan bu ilk kuzatuvlar keyinchalik ilmiy ahamiyatga ega manbalar sifatida tarixshunoslikda o‘z o‘rniga ega bo‘ldi. Jahon tarixshunosligida o‘zbek davlatchiligi tarixining xonliklar davriga oid an’anaviy dehqonchilik tizimi haqidagi dastlabki ilmiy tasavvurlar aynan shu davr tadqiqotlari natijasida shakllangan. Shuni alohida ta’kidlash joizki, mazkur tadqiqotlar bevosita xonliklar davridagi dehqonchilik tarixiga bag‘ishlangan maxsus ilmiy ishlar bo‘lmasa-da, ular mintaqaning siyosiy, iqtisodiy va tabiiy-geografik hayoti haqidagi ma’lumotlar tarkibida mazkur masalaga doir muhim fikr va kuzatuvlarni o‘zida mujassam etgan [1; 362-b., 111-b., 294-b., 182–185-b.]. Shuningdek, 1873-yilda yozilgan “Наши соседи в Средней Азии. Хива и Туркмения” [2; 138-b.] nomli asarda Xorazm vohasining an’anaviy dehqonchiligi, ekin turlari va yerga ishlov berish yuzasidan kompleks ma’lumotlar berilgan. P. Nebolsinning [3; 375-b.] asarlarida ham dehqonchilikka qisman to‘xtalib o‘tilgan. Mintaqaning dehqonchilik texnikasi haqida I. Krauzening [4; 40–46-b.] asarlaridan bilishimiz mumkin. Shuningdek, bir qator rus mualliflarining asarlarida mazkur tadqiqot mavzusiga oid ayrim masalalar qisman yoritilgan bo‘lib, ularda Xiva xonligi hududidagi mavjud sug‘orish tarmoqlari va kanallar haqida ma’lumotlar uchraydi [5; 180-b.]. Ammo mazkur asarlarda mintaqa dehqonchilik tizimining o‘ziga xos xususiyatlari, ishlab chiqarish vositalari hamda mehnat qurollari, soliq tizimi, chorvachilik va savdo munosabatlarida qishloq xo‘jaligining ulushi haqida deyarli to‘xtalilmagan. XIX asrning birinchi yarmidan boshlab Rossiya imperiyasining Turkiston va Xorazmga doir harbiy-siyosiy ekspeditsiyalari doirasida N. V. Xaniykov [6; 279-b.], A. I. Maksheev [7; 257-b.], P. P. Semenov [8; 468-b.], V. I. Lipskiy [9; 341–841-b.] kabi rus tadqiqotchilari tomonidan tayyorlangan asarlar mintaqa agrar tuzilmalarini o‘rganishda alohida o‘rin tutadi. Jumladan, XIX asr boshlarida O‘rta Osiyoga qilingan Rossiya ilmiy-diplomatik ekspeditsiyalari, jumladan, 1820-yildagi Negri boshchiligidagi missiya mazkur mintaqaning iqtisodiy hayotini, ayniqsa, dehqonchilik va savdo-sotiq tizimini o‘rganish uchun boy tarixiy va etnografik materiallarni taqdim etdi. Mazkur safarda ishtirok etgan tabiatshunoslar E. A. Eversman [10; 512–517-b.] va G. Meyendorf [11; 83–105-b.] tomonidan qoldirilgan yozma manbalar zamonaviy manbashunoslik nuqtayi nazaridan yuqori ilmiy ahamiyatga ega.

Eversman va Meyendorf ekspeditsiyasi Orenburgdan Buxorogacha bo‘lgan yo‘lni qamrab olib, Ilek daryosi, Mug‘ojar tog‘lari, Qizilqum, Quvandaryo va Jandaryo irmoqlari, Betpak-dala kabi tabiiy-geografik zonalarni kesib o‘tgan. Eversman tomonidan olib borilgan kuzatuvlar Orol dengizi mintaqasi, suv resurslarining cheklanganligi, o‘z navbatida, sug‘orma dehqonchilikka asoslangan agrar tuzum shakllanganini ko‘rsatadi. Bu esa O‘rta Osiyo iqtisodiyotining tabiiy-geografik omillarga qanchalik bog‘liqligini tasdiqlaydi.

Meyendorfning “Путешествие из Оренбурга в Бухару” nomli maqolasida Buxoro vohasidagi dehqonchilik haqida batafsil ma’lumotlar keltirilgan. Unga ko‘ra, Buxoro hududining suv bilan ta’minlash tarmoqlari, ariq va kanallar, ekin maydonlari, bog‘lar, qishloq xo‘jaligida yetishtiriladigan sabzavotlar, donli ekinlar, mevali daraxtlar, hattoki, o‘simliklarning nomlarini forscha va turkiychada keltirgan. Bu ma’lumotlar XIX asr Buxoro xonligida sug‘orma dehqonchilik asosiy iqtisodiy tayanch bo‘lganini dalillaydi.

XULOSA

Aholi tomonidan qishloq xo‘jaligi ishlarining qadimiy usullar asosida amalga oshirilgani, urug‘ ekishdan boshlab hosil yig‘imigacha bo‘lgan jarayonlar Eversman tomonidan puxta kuzatilgan va tizimlashtirilgan. Ayniqsa, bog‘dorchilik va polizchilikning ichki xo‘jalikdagi va tashqi savdodagi roli alohida qayd etilgan. Meyendorf va Eversman o‘z asarlarida Buxorodagi turli etnik birliklar va ularning xalq xo‘jaligining turli qatlamlarida bandligi haqida ham batafsil to‘xtalib o‘tgan. Xususan, hindlar tijoratda, tojiklar dehqonchilikda, yahudiylar zargarlikda faol bo‘lganligini yozadi. Shuningdek, ular ayollarning iqtisodiy faoliyatdagi o‘rni, tabiblar, astrologlar, hunarmandlar va diniy soha vakillari haqida ham batafsil yozib qoldirishgan. Bu manbalar iqtisodiyot bilan jamiyatdagi mazkur davrdagi gender rolining qanchalik uzviy bog‘liqligini ko‘rsatadi. Eversman va Meyendorf asarlari XIX asr O‘rta Osiyosi iqtisodiyotining turli qatlamlarini tahlil qilishda birlamchi manba sifatida g‘oyat muhim. Ularning kundalik shaklidagi qaydlari, tabiiy-geografik kuzatuvlari, iqtisodiy-hududiy tavsiflari, qishloq xo‘jaligi faoliyati, savdo va ijtimoiy tuzumlar haqidagi yozuvlari manbashunoslikning empirik asoslarini tashkil etadi. Ayni paytda bu asarlar arxivshunoslik va tarixiy-etnografik tadqiqotlarda, xususan, O‘rta Osiyo agrar tarixini tiklashda muhim rol o‘ynaydi. Jumladan, Buxoro xonligining irrigatsion tizimi, xalqaro savdo yo‘llari, iqtisodiy siyosati va ijtimoiy qatlamlarning iqtisodiyotdagi o‘rni kabi masalalar, mualliflarning kuzatuvlariga asoslangan ilmiy tahlillar nafaqat o‘tmish iqtisodiy tuzilmalarni yoritadi, balki mintaqaning tarixiy rivojlanish trayektoriyasini tushunishda ham muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Bu manbalar O‘rta Osiyo agrar madaniyatining turli bosqichlarini ilmiy asosda ochib berishda eng muhim tayanchlardan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Вамбери А. Очерки Средней Азии: дополнение к «Путешествию по Средней Азии». – Москва: Типография А. И. Мамонтова и К°, 1868. – [2], 362, II с. URL: https://search.rsl.ru/ru/record/01003578443
2. Брегель Ю. Э. Хорезмские туркмены в XIX веке. – Ч. 2. – Москва: Издательство восточной литературы, 1961. – 111 с.

ISSN 3060-5059 (Online)

3. Burnaby F. A Ride to Khiva: Travels and Adventures in Central Asia. – 10th ed. – London: Cassell, Petter & Galpin, 1877. – XVIII, 487 p. URL: https://wellcomecollection.org/works/sfswdrum
4. Frye R. N. The Golden Age of Persia: The Arabs in the East. – London: Weidenfeld and Nicolson, 1975. – XIII, 289 p. – P. 182–185. URL: https://search.worldcat.org/title/1498904
5. Наши соседи в Средней Азии. Ч. 1: Хива и Туркмения. – Санкт-Петербург: Издание журнала «Всемирный путешественник», 1873. URL: https://elib.rgo.ru/handle/123456789/217339
6. Небольсин П. И. Очерки торговли России с странами Средней Азии, Хивой, Бухарой и Коканом (со стороны Оренбургской линии). – Санкт-Петербург, 1856. – 375 с. разд. паг. URL: https://rusneb.ru/catalog/000199_000009_003543482/
7. Краузе И. О хивинском земледелии // Известия Императорского Русского географического общества. – 1874. – Т. 10, № 1. – С. 40–46.
8. Бартольд В. В. История культурной жизни Туркестана // Сочинения. – Москва: Наука, 1963. – Т. II, ч. 1.
9. Ханыков Н. В. Описание Бухарского ханства / сост. Н. Ханыковым. – Санкт-Петербург: Типография Императорской Академии наук, 1843. – [2], VI, 282, IV с. URL: https://elib.rgo.ru/handle/123456789/235308
10. Макшеев А. И. Путешествия по киргизским степям и Туркестанскому краю. – Санкт-Петербург: Военная типография, 1896. – [2], X, 257 с. URL: https://rusneb.ru/catalog/000199_000009_003675063/
11. Семенов П. П. История полувековой деятельности Императорского Русского географического общества. 1845–1895 / при содействии А. А. Достоевского. – Санкт-Петербург, 1896. – Ч. 1, отд. 1–3. URL: https://elib.rgo.ru/handle/123456789/211824
12. Липский В. И. Флора Средней Азии. – Ч. III: Ботанические коллекции из Средней Азии. – Санкт-Петербург, 1905. – С. 341–841.
13. Эверсман Э. Письмо доктора Эверсмана, находившегося при Российской миссии в Бухарию, полученное 1 марта 1821 года в С.-Петербурге // Северный архив. – Санкт-Петербург, 1822. – С. 512–517.).
14. Мейендорф Г. О бухарской торговле (из путешествия в Бухарию барона Г. Мейендорфа в 1820 г.) // Журнал мануфактур и торговли. – Санкт-Петербург. – № 6. – С. 83–105.